

TURKMAN VA O'ZBEK XALQI SHOIRI MAXTUMQULI FIROG'ITY IJODINING O'RGANILISHI

Omondavlatova Latofat Ne'matulla qizi

Termiz Davlar Universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи.

Elektron pochta: omondavlatovalatofat@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11200008>

Annotatsiya. Ushbu maqola xalqona didaktik yo'lda ijod qilgan mashxo'r Turkman tilining xaloskor shoiri Maxtumquli Firog'iyning hayoti va ijodining o'rganilishi haqida, shuningdek shoir qalamiga mansub she'rlar jamlangan "Komil" devonidagi shoirga berilgan ta'riflar, fikrlar, she'rlari qiymati haqidagi qarashlarimizni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: gumanizm, ilmiy lug'atlar, tilshunoslik nazariyasi, didaktika, Turkman tili, Turkmen adabiyoti, yo'nochi, din va tasavvuf.

THE STUDY OF THE WORKS OF TURKMEN AND UZBEK PEOPLE MAKHTUMKULI FIROGI

Abstract. This article is about the study of the life and work of the famous poet of the liberation of the Turkmen language, Makhtumkuli Firoghi, who created in a didactic way, as well as the definitions, opinions, contains our views on the value of poems.

Key words: humanism, scientific dictionaries, theory of linguistics, didactics, Turkmen language, Turkmen literature, yonochi, religion and mysticism.

ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА ТУРКМЕНСКОГО И УЗБЕКСКОГО НАРОДОВ МАХТУМКУЛИ ФИРОГИ

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию жизни и творчества известного поэта-освободителя туркменского языка Махтумкули Фироги, творившего в дидактическом ключе, а также определения, мнения, содержит наши взгляды на значение стихи.

Ключевые слова: гуманизм, научные словари, теория языкоznания, дидактика, туркменский язык, литература Туркмана, ёноти, религия и мистика.

Turkman xalqining mashxo'r shoiri Maxtumquli Firog'iyning hijriy 1383-yilda Eronning Mashxad shahrida Murod Durdi Qozi tomonidan nashrqa tayyorlangan "Komil" devoni bizga ma'lum bo'lib ushbu asar shoir qalamiga mansub qimmatli manba'dir. Asarda Maxtumqulining XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning boshlarida Garkazda faqir oilada dunyoga kelgan va Go'klen elidan ekanligi yozilgan. Maxtumquli ismiga zamonasidagilar "Yo'nochi" nomini

qo'shib qo'llagan. Kundalik hayotini zargarlik, temirchilik, charm ustachilik va dehqonchilik bilan kechirar ekan adabiyot va she'r san'ati bilan ham qiziqsan. Devonda Maxtumqulining bobosi Maxtumquli hayoti haqida atrofidagilarning ko'magi bilan oila qurib qirq yoshida farzandi Davlat Muhammat (ba'zi manba'larda Davlatmamat) ni ko'rganligi bayon qilingan.

Davlatmamat dastlabki ta'limni o'z qishlog'ida, madrasa ta'limini esa Xiva madrasalarida oladi. Ovulidan Orazgul ismli suluv qiz bilan oila qurib Abdulla, Mahtumquli, Matsafo, Zubayda ismli farzanlar ko'radi. Shoiring otasi Davlatmamat ham shoir bo'lib fors, arab, turkiy tillarni yaxshi bilar edi. Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy ijodi bilan yaqindan tanish bo'lganidan 1740-yilda yozilgan "Va'zi Ozodiy" asarida klassik adabiyot xususiyatlari yetakchilik qiladi. 60 yil umr kechirgan Mulla Davlatmamat ismiga "Mulla" maxlasining qo'shib aytishini esa adabiyotshunos olimlar qishloq bolalariga maktablarda dars bergenligi bilan izohlashadi.

Oiladagi ilmiy muhitning Maxtumquli hayotiga ta'sir etmasligi mumkin emasdi. Ilk ta'limni otasidan olib, qishloq maktabida Qiziloyoq qishlog'idagi Idrisbobo madrasasisa Ko'kaldosh va Sherg'oziy madrasalarida tahsil olgan. Ilm izlab Eron, Afg'oniston, Hindiston, Ozarbayjon shaharlarini kezadi. Shoir Suriyalik turkmanlardan do'sti Nuriy Kozim bilan Ahmat Yassaviy madrasasasida ham bir muddat ilm o'rganadi. *Firog'i* maxlasasi ayriliq, hijron, hasrat ma'nolarini beradi.

Ismi esa turkmanchada *Magtimgulu* shaklida yozadilar arab harflari bilan yozilganida *Matumgulu* ozarbayjon tilida nashr etilgan asarlarda *Mehdumgulu*, *Mehdimgulu*, *Mahtimgulu*, *Mehtimgulu* tarzida yoziladi. Ammo *Mehtum* va *Mehdum* so'zlari ikki xil ma'no ifodalaydi.

Mahtum komil, charchagan, xorg'in Mahdum esa vazifa olgan kishi ya'ni komillar quli demaktir. Bu ism gerkezlar orasida avliyo hisoblangan mahtumlarning ichidan chiqqan sharafli ma'no ifodalaydi. *Firog'i*ning hayoti haqida turli xil rivoyatlar mavjud. Oqqiz ismli ayol bilan oila qurib Mullo Bobak va Ibrohim ismli farzandlar ko'rganligi va farzandlari yoshlidayoq vafot etganligi qayd etilgan Shoir lirik turda lerik-epik dostonlar ijod qilgani ham hech kimga sir emas.

Asarlarida esa ishq, ayriliq, hasrat mavzularining mavjudligi yaqinlaridan judolik, yo'qotishlari bilan izohlanadi. Shoir vafoti bilan bog'liq har xillik mavjud bo'lib 1782, 1792, 1813 yillar ko'rsatilar edi. Ammo so'ngi izlanishlarga ko'ra Maxtumquli 1724-1807 yillarda yashaganligini ko'rsatadi.

"Komil" devoni maxsus murabba, muxammas, musaddas, musabba, mustasni muashshar, muashsha, g'azal, masnaviy qimlaridan tashkil topgan bo'lib, 376 ta murabba, 35 ta muxammas, 3ta musaddas, 4 ta musabba, 2 ta mustasni, 1 ta muashshar, 2 ta muashsha, 17 ta g'azal, 2 ta masnaviyni o'z ichiga oladi. Mazkur devonning qo'lyozma shakli hozirgi kunda Turkmaniston respublikasining qo'lyozmalar institutida saqlanmoqda. Devonda "Olimlarning va tarixchilarning

unga bergen adolatli baholari” qismida professor Arminiy Vamberi o‘z maqolasida Maxtumquli haqida shunday deydi:

Unda takabburlik yo‘q muloyim, yuvosh, osuda tabiatlidir. Vamberi maqolasining boshqa bo‘limida shoir asarlari tarbiyaviy ruhda yozilganligini ta’kidlab “o‘g‘irlilik, jinoyat, talonchilik, qaroqchilik, odam o‘ldirish, qon to‘kishdek yomon ishlarga qarshi kurashgan” deydi. Bu bilan Vamberi adibni gumanizm tarafidori inson haq-huquqlarining posponi o‘laroq ta’riflagan.

U she’rlarida ollohga muhabbatni, ezgu ishlarni, diniy ahkomlarga amal qilishni, vatanparvarlik, xalqsevarlik tuyg‘ularini kuylagan. Osuda zamonda yashamadi ammo hushomadgo‘ylik, laganbardorlikni boshqa shoirlar kabi kasb qilmadi.

Shayx Suloymon Buhoriy milodiy 1880-1881-yillarda Istanbulda nashr qildirgan “Chig‘atoi usmon” lug‘atida shuningdek, mashxo‘r olim Radlovning “Turk tillari so‘lug‘unun tajribasi” lug‘atida Mahtumquli asarlaridagi so‘zlardan foydalanganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Tutkman turkchasini o‘rganish XIX asrning o‘rtalarida asosan nemis var rus olimlari tomonidan boshlangan edi. Eski o‘g‘uz tiliga oid xususiyatlarni o‘zida birlashtirgan turkman tili chig‘atoi tilining ta’sirida rivojlangan yozuv tilidir. “Maxtumquliga davriga qadar turkman yozma adabiyotining tili chig‘atoycha bo‘lgan”¹. Shu o‘rinda, shoir she’rlarida qo‘llagan sof turkmacha so‘zlar, turkman tili xazinasini boyitganligi, turkman tilining bugunga qadar saqlanib qolishiga beqiyos hissa qo‘sghanligi yuqoridagi namunalardan ham anglashilib turibdi. Maxtumquli she’rlarida turkman ananalar, turkman ruhini tasvirlar ekan turkman xalqining birligini ham orzu qiladi.

*Jayhun bilan Bahr-u Hazarning orasi,
Cho ‘l ustidan esar yeli Turkmanning
Gul g‘unchasi qora ko ‘zim qorasi,
Qora tog ‘dan oqar seli Turkmanning.*

*Ko ‘ngillar, yuraklar bir bo ‘lib boshlar,
To ‘plansa to ‘p bo ‘lar tuproqlar toshlar
Bir dasturxonda hozir qilinsa oshlar
Yuksalar iqboli shu zamon Turkmanning²*

“Turkmanning”

¹ “Türkmen şairi Mahtumkulu hayatı, edebiy kişiliği,larındaki bilimsel çalışmalar ve şiirlerinden örnekler” Halılı İlteriş Kutlu

Başkent üniversitesi 2018 y.

² Ramiz, Asker, a.g.e.s.29

Maxtumquli hayoti va ijodi ustida amalga oshirilgan izlanishlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ularning qiymati anchayin salmoqli. Bu salmoqni esa “Türkmen şairi Mahtumkulu hayatı, edebiyatçılığı, hakkındaki bilimsel çalışmalar ve şiirlerinden örnekler” nomli Halili Iltarish Qutluning asaridan bilishimiz mumkin. Boshqa asarlarga nisbatan Maxtumquli bilan bog‘liq tarixiy statistikalar ko‘proq va to‘liqroq keltirilgan. Olim Shoir bilan bog‘liq ilmiy ishlarni quydagicha tasniflaydi.

- 1.G‘arbda dunyosida bajarilgan ishlar
- 2.Turkiy dunyosi ya’ni sharqda amalga oshirilgan ishlar
- 3.Turkiyada amalga oshirilgan ishlar

1.G‘arbda dunyosida bajarilgan ishlar. Maxtumquli ustida amalga oshirilgan ilk ish Polyak olim Hodzko Boreyko tomonidan 1842-yilda Londonda bajarilgan edi. 1862-yilda I.N.Brezin Turk xrestomatiyasida Maxtumquli she’rlaridan namunalar keltirgan va 1879-yilda ilk marotaba shoirning 30 dan ortiq she’rlarini devon holida jamlab Leypsigda Alman sharq jamiyatiga majmuasida nashr etishga tuyassar bo‘ladi. Rus olimi Samoylovich shoir bilan aloqador 4 ta maqola nashr etgan.

2.Turkiy dunyosi ya’ni sharqda amalga oshirilgan ishlar sirasida N.A.Ostromov 1907-yili “Turkiston viloyatining gazet” da Maxtumqulining 50 she’rini 128 sahifali kitob shaklida nashr ettirgan edi. Maxtumqulining Ostromov tomonidan 1911-yili chiqarilgan kitobini Mirzohit Mirsiddiq o‘g‘li arab harflari bilan Toshkentda chop etadi. 1912-yilda esa Abdurahmon Niyoziy shoir devonini Astraxanda nashr ettirdi. Ahmad Zakiy Vlidiy To‘g‘on Maxtumqulining hayoti, ijodi, oilasiga bog‘liq bo‘lgan boshqa nusxalardan anchayin boy bo‘lgan boshqa bir devonni (devonda 243 ta she’r bo‘lgan) Orenburgda ilm ahliga ma’lum qiladi. So‘ng yillarda Sayit Garriyev 1967-yili “Sovet kunchiqish xalqlarining adabiyotlari bilan solishtirma” asarida Maxtumquli bilan Qoraqalpoq, O‘zbek va Ozarbayjon shoirlari qiyoslab o‘rganilgan. 1997-yili Ashhabotda A.Meredov 3 jildli “Maxtumquli lug‘ati” ni yaratdi. 2008-yili Kakajan Atayev shoirning 379 she’rini o‘z ichiga olgan devon tayyorlagan bo‘lsa, 2009-yili Oraz Po‘lat Baharlining Maxtumquli devoni 537 ta she’rni jamlagan edi.

2010-yili Ramiz Asker shoirning tanlangan asarlarida she’rlar miqdorini 550 taga yetkazdi.

3.Turkiyada amalga oshirilgan ishlarning boshlanishi 1924-yili 44 manzumadan tashkil topgan Husayn Kozim Kadrining 64 sahifali asari bo‘ldi. Turkiyada 1998-yili Abdurahman Go‘zelning “Yunus Emre va Maxtumqulida o‘rtoq motivlar” asari nihoyatda ahamiyatlidir. Asarda din, dunyoqarash, uslub masalasi qalamga olingan. 2006-yili “Maxtumquli she’rlarida tasviriy fellar ustida bir tekshirish” maqolasida shoir she’rlaridagi tasviriy fellar hozirgacha Turkiya turkchasi bilan paralellik ko‘rsatishi faqat, bu fellar qurilishi va shakli jihatidan Turkiya

turkchisidan farqlanishini yozadi. Yuqoridagi ma'lumotlar shoir ijodining tilshunoslik nazariyasi, adabiyotshunoslik tarixi, adabiyotshunoslik nazariyasi uchun ham qimmatli manba ekanligini ko'rsatsa, bu ma'nbalarning ko'lami Maxtumquli ijodining naqadar boyligi, qiymatliligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak XVIII asr turkman klassik adabiyotining Davlatmamat Ozodiy, Mahtumquli Firog'iy, Nurmuhammad Andalip, Shaydoi kabi shoirlari davri turkman adabiyotining eng gullagan davri hisoblanadi. Sharq klassik adabiyotidan andoza olmasdan Nizomiy, Sa'diy Sheroziy, Navoiy, Fuzuliy ijodiga hurmat ko'rsatib o'zgacha uslub, tur va mavzuda qalam tebratganligi bilan ahamiyatlidir.

REFERENCES

1. Komil devoni, Eron. Mashxad, 1383 y.
2. Türkmen şairi Mahtumkulu hayatı, edebiy kişiliği,larındaki bilimsel çalışmalar ve şiirlerinden örnekler, Halılı İlteriş Kutlu, Başkent üniversitesi, 2018 y.
3. Ramiz, Asker, a.g.e.s.29
4. Maxtumquli insoniyat shoiri, B.Qosimov, Muharrir nashriyoti, Toshkent, 2024y.
5. Maxtumqulining shoir otasi, maqola, R. Jabborov, 2024y.
6. Maxtumquli, devon, Baymuhammet Garriyev. Turmen davlat nashri, Ashg'abot, 1959y.